

VII. TRANSPORT VA ALOQA

Yuk tashish. Avtomobil transportida 26,5 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,5 mln tonnaga ko‘pdir. Yuk aylanmasi 1 114,3 mln tn-km ga yetdi va bu o‘tgan- yilning mos davriga nisbatan 89,0 mln tn-kmga ko‘p demakdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,1 % bo‘lib, 137,1 mln tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo‘yicha ulushi 90,4 % ni tashkil etgan.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha ifodalanishi

	2025- yil yanvar- sentabr	2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, % da
Tashilgan yuk, mln tn.	26,5	106,1
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	26,5	106,1
Yuk aylanmasi, mln tn-km.	1 114,3	108,7
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	1 114,3	108,7

Yo‘lovchi tashish. 2025- yil yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 370,3 mln kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ga ko‘paygan.


Yo‘lovchi aylanmasi hajmi 7 906,0 mln yo‘lovchi-km, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalar bo‘yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo‘yicha hajmli korxonalar soni 49 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar shakllandi:


Tashilgan yuklar hajmi 2,5 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 149,1 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 9,6 %);

Yuk aylanmasi hajmi 55,4 mln tn-km, o'sish sur'ati o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 5,0 %);



Tashilgan yo'lovchilar hajmi 6,5 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 1,8 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 297,7 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 3,8 %).



Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 108,4 % ga ko'payib, 7 906,0 mln yo'lovchi-km ni tashkil qildi.



**7 906,0 mln
yo'lovchi-km**



108,4 %

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 98,2 % ni tashkil etgan.

**Kichik biznesning yo'lovchi
tashishda ulushi**

• 98,2 %

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2025- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,4 % bo'lib, 7 906,0 mln yo'lovchi-kmni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 79,7 % ni tashkil etdi.